

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Xamidov

Geoekologik muammolar va ularning yechimiga oid kontsepsiyalar (Farg'ona vodiysi misolida)263

Z.X.Madaminov, M.R.Mahammadova

Iste'molni tadqiq etish va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyatini baholash metodlari268

M.N.Xabibullayeva

Andijon viloyati ma'muriy tumanlari va markazlarining toponimik taxlili.....272

K.K.Uzakbaev

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining joylashuv tizimi xizmat ko'rsatish sohalari hududiy rivojlanishining omili sifatida.....280

F.N.Alimjanov

Global iqlim o'zgarishi sharoitida talabalarni ekologik faolligini oshirishni pedagogik omillari...288

S.M.O'ktamova

Shohimardonsoy daryo havzasi antropogen landshaftlaridagi geoekologik holat va oqibatlarini baholash masalalari292

Sh.Sh.No'monov, M.A.Badalova

Hududlarni barqaror rivojlantirishda yerdan foydalanishning o'рни.....297

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari303

B.S.Tojiddinov

Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash usullari306

N.A.Fattoxov, S.T.Sobirova

Antropogen omilning shaharlar geoekologik vaziyatiga ta'siri (Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi misolida)312

**ANDIJON VILOYATI MA'MURIY TUMANLARI VA MA'MURIY MARKAZLARINING
TOPONIMIK TAXLILI****ТОПОНИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНЫХ РАЙОНОВ И
АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЦЕНТРОВ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ****TOPONYMIC ANALYSIS OF ADMINISTRATIVE REGIONS AND ADMINISTRATIVE
CENTERS OF ANDIJAN REGION****Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna¹**¹Andijon davlat universiteti, geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada geografiya fanining zamonaviy tarmog'ini hisoblangan toponimikaning geografiya, tarix kabi fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda joy nomlarini taxliliy o'rganishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Geografik nomlarni o'rganish, ularni bir-biridan farqlash bir muncha murakkab jarayon bo'lib, ulardagi turkum (shahar, tuman, tog', cho'l va h.k.) tushunchalarni aralashib ketishi ularni o'rganishda qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Maqolada Andijon viloyati tumanlarini nomlari va ularni kelib chiqishi, mazmunini yoritib berishga harakat qilingan bo'lib, viloyat hududidagi joy nomlarini xorijiy va mahalliy olimlarning o'rganishlari asosida qoldirgan ma'lumotlarini taxliliy asoslashga qilingan.

Аннотация

В статье рассматривается значение топонимии, которая считается современной отраслью географии, в аналитическом изучении топонимов применительно к таким дисциплинам, как география и история. Изучение географических названий и отличие их друг от друга представляет собой довольно сложный процесс, а путаница в них понятий категорий (город, район, гора, пустыня и т. д.) создает трудности в их изучении. В статье предпринята попытка пролить свет на названия районов Андижанской области, их происхождение и содержание, а также проанализировать данные, оставленные зарубежными и отечественными учеными о названиях мест в регионе.

Abstract

The article examines the importance of toponymy, which is considered a modern branch of geography, in the analytical study of toponyms in relation to such disciplines as geography and history. The study of geographical names and their differences from each other is a rather complex process, and the confusion in them of the concepts of categories (city, region, mountain, desert, etc.) creates difficulties in their study. The article attempts to shed light on the names of the districts of the Andijan region, their origin and content, as well as to analyze the data left by foreign and domestic scientists about the names of places in the region.

Kalit so'z: Qipchoqlar, Obod, Tepa, Minglar, YUNESKO, Gidronimlar, Fitotoponimlar, fonetika.**Ключевые слова:** Кипчаклар, Абад, Тепа, Минглар, ЮНЕСКО, Гидронимы, Фитотопонимы, Фонетика.**Key words:** Kipchaks, Abad, Tepa, Minglar, UNESCO, Hydronyms, Phytotoponyms, phonetics.**KIRISH**

Ushbu tadqiqot ishi Andijon viloyati tumanlaridagi joy nomlari, ularning kelib chiqishi yuzasidan qilingan. Bizga ma'lumki ba'zi joylar haqida turli rivoyat va afsonalar yuradi. Bu mutaxassislar izlanishlari natijasida ham aniqlangan. Yana shunday joylar borki, Mustaqillikka erishilgach ularning nomi yangilandi yoki eskisiga almashtirildi. Masalan, Paxtaobod tumanida (rus bosqini paytida) Omonjo'ra qishlog'i bo'lgan (Bu qishloq haqida tarix kitoblarida ham aytib o'tilgan) Kolxozlashtirish paytida kolxozga Lenin nomi berilgan. Qishloq ham shu nom bilan atalib ketgan. Hozirda Ozod deb nom berilgan.

Joy nomlarini o'rganishdan maqsad, ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz yashab o'tgan joylarda biz ham yashab, shu joylarni obod qilib, nomlarini ulug'lashimiz zarur. Joylar o'rganilib kelishiga qaramay, hali ba'zi nomlarimiz shu joyning kelib chiqishi va geografiyasiga mos kelmasligi ham bor gap. Ba'zi joylarda toponimik tekshiruvlar o'tkazganimizda aholi o'zlari yashab turgan joy nomlarini o'zgartirish tarafdori ekanliklarini ta'kidlaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'rta Osiyo joy nomlarini unda O'zbekiston hududi va aynan Andijon viloyati tumanlari joy nomlarini o'rganish masalalari bo'yicha O'zbekiston toponimik olimlari, chet el olimlari tomonidan keng miqyosda o'rganilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan Rus geograf olimi V.P.Nalivkin, V.V.Radlov, Rus tarixchisi B.A.Litvinskiy arab geograflari Ibn Havqal, Istaxriy, S.Gubayev,

A.A.Semenov, B.Karmisheva, R.G.Kuzeyev va boshqa olimlarning izlanishlarida joy nomlarini yozilishi, talafuzi va yozma manbalardagi ma'lumotlar kabi masalalari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda qomusiy olimlardan Mahmud Koshg'ariy, Narshaxiy asarlarida va hozirgi zamon olimlari S.Qorayev, H.Hasanov, T.Nafasov, X.Doniyorov, A.Muhammadjonov, S.Jalilov, A.Nurmonovlarning asarlarida toponimika faniga oid ko'plab ishlar bo'lib, ularda Andijon viloyati joy nomlarini o'rganilganligi va bu ma'lumotlardan mazkur maqolada foydalanishga asos bo'ldi.

Ushbu tadqiqot ishida geografik taqqoslash, kuzatish, hududiy tahlil, tarixiy va boshqa metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Andijon O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat, shahar va tuman nomi. Andijon nomining kelib chiqishi haqida turli xil rivoyat va afsonalar mavjud. Ayrim mutaxassislar shahar nomi malika Andukon ismidan olingan yoki "ozodagon" va "mardon" so'zidan ("ozodlar shahri", "mardlar shahri") hosil bo'lgan deb ta'kidlaydilar.

H.Hasanovning yozishicha, bu so'zlar shahar nomi emas, balki laqab, maqtov so'zidir. Taniqli toponimist olimning yozishicha, shahar nomini boshqacha izohlasa ham bo'ladi, andi – bu qabila nomi, xatto andijonliklarni osongina «andi» deb ataganlar, jon qo'shimchasi esa ehtimol suv, daryo ma'nosidagi qadimiy terminlardan bo'lsa kerak. Rus geograf olimi V.P.Nalivkin xalq orasidagi rivoyatlarga asoslanib, shahar nomi «andi» degan turkiy qabila nomi bilan bog'liq deb o'z asarida yozgan edi.

X asrdan boshlab shahar nomi arab geograflari Ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida va boshqa qator tarixiy manbalarda Andigan, Andigon, Andikon, Andukon shakllarida qayd qilingan. Tarixchi olim S.Jalilov fikriga ko'ra, shahar nomiga "ad" degan turkiy qabilaning nomi asos bo'lgan. Bu etnonim forscha ko'plik qo'shimchasida adgon - adigon shaklida talaffuz qilingan va keyinchalik unga "n" tovushi qo'shilgan deb hisoblaydi. O'rta asrlarda "andi" degan turkiy qabila bo'lganligini e'tirof etgan holda etnograf B.Karmisheva ham shahar nomiga mazkur etnonim asos bo'lganligini ehtimoldan holi emas degan xulosani bayon qilgan.

Ayrim mutaxassislar shahar nomini uning geografik o'rni bilan bog'liq deyishadi. Masalan, akademik A.Muhammadjonov fikricha, Andijon oykonimi "andi" va "gon" yoki "gin" so'zlari birikmasidan paydo bo'lgan. Qadimiy so'g'd tilida andi – "yaqin", gon, gin – "suv", ya'ni suvga yaqin, soybo'yi, suv yoqasi ma'nolarini bildiradi. Boshqa olim V.V.Radlovning yozishicha, qadimiy turkiy arig'i – "daryo tarmog'i, orol" so'zi fonetik o'zgarishlar oqibatida andi shakliga o'zgaragan bo'lishi mumkin deb ta'kidlaydi. Qisqacha qilib aytganda, mutaxassislar Andijon nomining paydo bo'lishini turlicha talqin qilishgan, bu esa shahar nomining ilmiy etimologiyasini aniqlash uchun qo'shimcha etimologik tadqiqotlarning zarurligini bildiradi. Quyida viloyatning bir qator tumanlari va ularning markazlari nomlarining toponimik taxlilini ko'rib chiqamiz.

Andijon tumanining ma'muriy markazi - Kuyganyor shaharchasi (1978-yildan). Farg'ona vodiysi toponimlari tarkibida "yor" ancha sermahsul qo'shimcha. Uning yordamida ko'plab joy nomlari hosil qilingan. Unga Yorboshi, Oqyor, Yorqo'rg'on, Kuyganyor kabilarni misol keltirish mumkin. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarida (XI asr) qadimiy turkiy tillarda jar so'zi – "yar", "yor" shaklida talaffuz qilingan deb yozgan. Andijon viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi - Andijon shahri (1941-yildan).

Asaka - Andijon viloyati tarkibidagi shahar va tuman nomi. Mutaxassislar asaka nomining kelib chiqishini turlicha talqin qilishgan. Ayrim tadqiqotchilar asaka nomining paydo bo'lishini O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan sak qabilalari nomi bilan bog'lashadi. Chunki bu qabila ba'zi tarixiy manbalarda "assakenlar" nomi bilan ham tilga olingan. Ularda "asvaka" - ot, "assaka" - otliqlar ma'nosini bildirgan. Qadimshunoslar vodiyni sharqiy qismida topilgan toshlardagi otlar tasviri bilan o'z fikrlarni asoslashga harakat qilishgan va shu hududda qadimda nasldor otlar boqilgan degan xulosaga kelganlar.

Rus tarixchisi B.A.Litvinskiy Asaka tarixini Farg'onada miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan sak qabilalar bilan bog'laydi. Taniqli olim qadimgi yunon va hind manbalariga asoslanib, o'tmishda Pomirda yashovchi sak qabilalarining yurti Assakana, xalqi esa assake(n)lar deb atalganligi, A.Makedonskiy O'rta Osiyodan keyin, ana shu yo'l orqali Hindistonga o'tganligini ta'kidlaydi.

Arxeolog olim B.X.Matboboyev esa Asaka tarixini Dayyuan (qadimgi Farg'ona) davlati tarixi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Uning talqinicha, Asaka so'zi jonli hind tilida "asvaka" - ot, "assaga, assaka" - otliqlar, chavandozlar degani, ya'ni assaka - otliqlar yurti deb e'tirof etadi. Shu xulosaga

asoslanib, 1997-yili Asaka shahriga kiraverishdagi maydonda tulpor otning ramziy haykali qo'yilgan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, ba'zi nasabnomalarda o'zbek urug'lari orasida asaka va qirg'izlarning sayaq qabilasi tarkibida asake urug'i qayd qilingan. Oltinko'l tumanidagi Asakalik qishlog'i va Ustyurt platosining janubidagi Asakaovdon botig'ining nomi ham shu etnik guruh nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tarixchi akademik A.Muhammadjonov fikricha, Asaka aslida Asikal shaklida talaffuz etilib, "as" - turkiy urug', "kal" - suv yoki soy demakdir.

Ammo bir qator olimlar borki, ular Asaka nomi va uning tarixini ilk o'rta asrlar bilan bog'laydi. Masalan, professor A.Teshaboyev Asaka so'zini o'zgacha talqin qilgan. Olim qadimgi turkiy tilda "ass" burgut, lochin degan ma'nolarni anglatgan va o'tmishda turk urug'lari ichida "ass" - burgut (totemi) urug'i ham bo'lganligi to'g'risida aynan tarixiy manbalarda ma'lumotlar bor deydi.

Shu o'rinda B.Ahmedovning Asaka nomini "ass" urug'i bilan bog'liq degan xulosasini ham aytish mumkin. Olimning fikricha hozirgi Asaka va uning atrofidagi adir hamda vodiylarda ilk o'rta asrlarda "ass" etnik guruh vakillari yashaganlar. Bu mulohazani tarixchi A.Muhammadjonov ham tasdiqlaydi va uning fikricha, Asaka aslida Assikal shaklida talaffuz etilib, "ass" - turkiy urug', "kal" - suv yoki soy demakdir.

Tuman ma'muriy va madaniy markazi - Asaka shahri (1991 yildan). Shahar 1937-1991 yillari Baliqchi Andijon viloyati tarkibidagi tuman nomi. Tuman viloyatning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. Mutaxassislarning fikricha, viloyat tarkibidagi tuman nomiga umumturkiy etnonim asos bo'lgan. Chunki o'zbeklarning bir urug'i baliqchi deb atalgan. Shuningdek, turkmanlarning ersari, boshqirdlarning tanil, qozoqlarning aday, qirg'izlarning saruu qabilalarining bir urug'i baliqchi deb atalgan.

Farg'ona vodiysi etnonimlarini o'rgangan S.Gubayevaning ma'lumotlari bo'yicha, baliqchi urug'i vakillari o'rta asrlarda Yettisuvdan kelgan. Suv bo'yida, daryo sohilida joylashgan hududlarning aholisi asosan baliqchilik bilan shug'ullanganligi avvaldan ma'lum. Baliqchi, Baliqchilar kabi shahar va qishloqlar nomi ko'pincha suv bo'yi va suvga yaqin hududlarda paydo bo'ladi. Shu sababdan, ko'pchilik etnik guruh nomini ularning shug'ullangan kasbi bilan bog'liq deyishadi. Ammo bu talqinni inkor qiladiganlar ham bor. Masalan, etnograf R.G.Kuzeyevning yozishicha, tarkibida baliqchi etnonimi bo'lgan boshqirdlar ham, qozoqlar ham, qirg'izlar ham qadimda baliqchilik bilan shug'ullanmagan. Olim baliq (balig') so'zi qadimiy turkiy tilda shahar ma'nosini anglatganligiga ishora qilib, baliqchi etnonimi – "shaharni atrofda qo'riqlab turuvchilar" degan ma'noni anglatadi degan xulosani bayon qilgan.

T.Nafasovning fikricha, baliqchi tarixan yasama so'z. Baliq - shahar ma'nosini anglatgan, barcha turkiy, mo'g'ul, tungus- manjur tillariga xos eng qadimiy so'z. Professor A.Nurmonov baliq, baliq so'zini turkiy va mo'g'ul tillarga xos ekanligini alohida qayd qilgan. Rus olimi akademik V.V.Radlov lug'atida ham bu so'zning qadimgi turkiy bitiklardagi ma'nosi asos qilib olingan va baliq, "balaq" - shahar, qo'rg'on deb izohlangan. Tuman ma'muriy markazi - Baliqchi shaharchasi (2000-yildan).

Buloqboshi Andijon viloyati tarkibidagi tuman nomi. Hududi asosan tog' va tog' oldi tekisliklardan iborat. Tumanning ma'muriy markaz ham shu nom bilan yuritiladi vauning bunday nomlanishida aholi punkti dastlab buloq boshida yoki uning yaqin atrofida paydo bo'lgan.

Mo'g'ul va turkiy tillar uchun umumiy, mushtarak bo'lgan toponimik terminlardan biri buloq bo'lib, yer osti suvlarning tabiiy holda yer yuzasiga chiqishi buloq deyilgan. Buloq so'zininl areali ancha keng va geografik termin sifatida barcha turkiy tilli hududlarda joy nomlari tarkibida keng qo'llaniladi. Buloq so'zi "oqmoq", "aralastirmoq" ma'nosidagi bula fe'lidan kelib chiqqan degan xulosa mavjud. Qurg'oqchil hududlarda yashovchi O'rta Osiyo xalqlari uchun suv manbalariga yaqinligi muhim ijtimoiy voqelik (belgi) sanalgan. Aholi manzilgohini buloq boshida, ya'ni sersuv joyda joylashganligi, uning boshqalargi nisbatan afzalligi sifatida talqin qilingan.

O'zbekistonda buloqlardan to'g'ri foydalanish maqsadida buloqli joylarning gidrogeologiya sharoitlari, buloqlar paydo bo'lish jarayoni, suv temperaturasi, tarkibi va chiqadigan miqdori o'rganiladi. Geografik nom aholi punkti suv manbai hisoblangan buloqqa yaqin joyda joylashganligidan darak beradi. Tuman ma'muriy markazi - Buloqboshi shaharchasi (1992-yildan).

Bo'ston Andijon viloyatidagi tuman va shaharcha nomi. Bo'ston yaqin vaqtgacha Bo'z deb atalgan qadimiy qishloqlardan bo'lib, 1950-yilgacha Nasriddinbek deb atalgan. Nasriddinbek (1850-1876)-Andijon hokimi (1865-1875) - Qo'qon xoni Xudoyorxonning katta o'g'li. Nasriddinbek hokimlik davrida Andijonda muhtasham madrasa va jome masjidi qurdirgan.

Markaziy Fargʻonaning sharqiy qismida, yaʼni Andijon viloyat hududida joylashgan dasht Boʻz nomi bilan yuritilgan. Oʻtgan asrning oʻrtalarida suv keltirilib, dasht qisman oʻzlashtiriladi. 1950-yili oʻzlashtirilgan yerlarda Boʻston nomi bilan yangi tuman tashkil etiladi. Demak, boʻz soʻzi dastlab dasht nomi boʻlgan, keyinchalik tuman va shaharchaga ham nom boʻlib oʻtgan. Nomda koʻchish hodisasi yuz bergan.

Mutaxassislar boʻz soʻzini bir necha maʼnolarga ega ekanligini taʼkidlashgan. Masalan, H.Hasanovning yozishicha, boʻz soʻzining yangi degan maʼnosi bor, boʻz yer - yangi yer, boʻz bola yosh yigit va boshqalar. Shu sababdan boʻz qishloq deganda, yangi qishloq deb tushunish mumkin. Boʻz soʻzini loyqa, sargʻish degan maʼnosi ham bor.

Boʻz suv - loyqa suv, sargʻish rangdagi suv. Qadimda qoʻl dastgohlarida boʻsh pishirilgan paxta ipidan sodda toʻqilgan mato ham boʻz (karbos) deyilgan. Yozma manbalarda boshqa matolar qatori boʻz ham koʻp tilga olingan. Boʻz Turkistonda qoʻlda toʻqilgan matolar orasida xaridorbop mato boʻlgani uchun mahalliy aholi orasida keng tarqalgan. Chunonchi, Buxoroda boʻz sotiladigan rnaxsus joy – “Bozori karbos” boʻlgan. Boʻzchilar (boʻz toʻqish kasbini egallagan) - boʻzdan turli xil kiyimlar, kashta tikilgan buyumlar, gul bosib bezatilgan dasturxon, choyshablar tayyorlagan.

Boʻz soʻzining yana bir maʼnosi - oʻzlashtirilmagan, uzoq yillar ishlov berilmagan qoʻriq yer, dasht, choʻl. Boʻz yer asosan, sugʻorish imkoni boʻlmaganligi tufayli saqlanib qolgan va ular ekin maydonlarini kengaytirishning asosiy zaxirasi hisoblanadi. Oʻzbekistonda boʻz tuproq turi dengiz sathidan balandligi 300 metrdan 1000 metrgacha boʻlgan yerlarda tarqalgan va qishloq xoʻjaligida keng foydalaniladi. Ayrim mutaxassislar, “baz” yoki “boʻz” soʻzini qadimiy turkiy tilda “oʻzga yerlik kishi”, “begona kishi” degan maʼnolari harn boʻlgan deyishadi. Tuman maʼmuriy markazi - Boʻz shaharchasi (1983-yildan). Boʻston shaharchasi hozirda.

Izboskan Andijon viloyati tarkibidagi tuman nomi. Nomning semantikasi nomaʼlum, qoʻshimcha etimologik tadqiqotlar zarur boʻladi. Izboskan tumani relyefi asosan pasttekislik boʻlib, janubi-gʻarbga tomon pasayib boradi. Tuman hududidan Katta Fargʻona kanali, Qoradaryo, Maylisoy, Tentaksoy oqib oʻtadi. Asosan, boʻz tuproq, toʻq va och tusli oʻtloqi, botqoq-oʻtloqi tuproqlar tarqalgan. 1992-yili Izboskan tumani hududida kuchli zilzila sodir boʻlgan. Zilzilani kuchi epitsentrida 8 ballni tashkil qilgan. Seysmik toʻlqinlar epitsentral tonada 7-8 ball kuch bilan tarqalib atrofda qishloqlarga ancha zarar yetkazgan.

Tuman maʼmuriy va madaniy markazi - Poytugʻ shahri (1980 yildan). Mutaxassislar shahar nomini “poy quyi, etak”, tugʻ - toʻgʻon deb izohlashgan. Mahmud Koshgʻariy oʻzining «Devoni lugʻatit turk» asarida tugʻ soʻzini toʻgʻon maʼnosida qoʻllagan. Shunga asoslanib, H.Hasanov Poytug toʻgʻon tagi, toʻgʻon yoni boʻlsa kerak deydi.

Ayrim mutaxassislar (A.A.Semenov) shahar nomini poy quyi, etak, tugʻ - bayroq, yalav», yaʼni «bayroq tikilgan joy», deb izohlashgan. Oʻzbek, tojik, arab tillarini puxta bilgan rus sharqshunos olimi V.P.Nalivkin (1852-1920) Fargʻona vodiysidagi shu yerli aholining tili, turmushi va urf-odatlarini yaqindan oʻrganish uchun Nanay qishlogʻidan yer sotib olib, oilasi bilan shu yerda bir necha yil yashagan. U Turkiston oʻlkasining tarixi, etnografiyasi, islom madaniyatiga doir asarlar yozgan.

V.P.Nalivkin keltirgan rivoyatga koʻra, fotih xalifa Hazrati Ali gʻalabadan keyin shu yerda dam olgani toʻxtab, oʻz tugʻini tikkani uchun bu joy shunday nom olgan. Professor Suyun Qorayev nomning Poytiq, Poytoq, Boytoq talaffuzi ham borligini taʼkidlaydi. Poytugʻ nomli joylar boshqa hududlarda ham bor. Har holda biron fotih, hokim gʻalaba qilgan joy shunday nom olgan boʻlishi mumkin, - deb yozgan.

Jalaquduq Andijon viloyati tarkibidagi tuman nomi. Tuman hududi viloyatning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Relyef pasttekislik, qir va adirlardan iborat. Jalolquduq va unga yondosh qishloqlar oʻramida yogʻingarchilik koʻproq boʻlganligi sababli bu yerlar ilgari qamishzor, toʻqayzor boʻlgan. Jalolquduq nomining ilk shakli - Jelaquduq. Shu sababdan, tuman nomi Jalol ismli kishi tomonidan qazilgan quduq nomi bilan bogʻliq deb tushunmaslik kerak. Chunki nom koʻp asrlik qoʻllanish jarayonida nom shaklan oʻzgarib yangicha maʼno kasb etgan.

Tuman nomi «jela» yoki «jelak» soʻzidan kelib chiqqan degan rivoyat mavjud. Unga koʻra, oʻtmishda mahalliy aholi zovur, buloq va quduqlarga jela tashlab baliq ovlagan ekan. Jela qoʻyiladigan quduqlar asta-sekin «jelaquduq» deb ataladigan boʻlganmish Keyinchalik bu nom talaffuzda oʻzgarib «jalaquduq», «jalolquduq» shaklida qishloq, soʻngra tumanga nom boʻlib qolgan deyiladi. Jela - baliq ovlashda ishlatiladigan asbob turi. Jela yordamid baliq koʻl, quduq, soy, daryo kabi suv havzalarida suzib ovlanadi Iltiradigan jelalar baliq toʻriga oʻxshab ingichka iplarda

to'qiladi. O'rnatib qo'yiladigan jelalar suv havzasining ma'lum bir yeriga mahkamlab qo'yiladi. Jelaga baliq ilinsa qaytib chiqolmaydi. Bu xildagi tuzoqlar ilgari qamish, novda va boshqa materiallarda to'qilgan, hozir esa faqat to'rdan qilinadi. Quduq suv olis maqsadida qazilgan tor va teran chuqurlik.

Jalolquduq tumani hududida bir qancha arxeologik tepalik v me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Ayrim tarixiy manbalarda VIII asr boshida Farg'ona vodiysiga bostirib kelgan Qutayba ibn Muslimga qarshi mahalliy xalq mardonavor kurashadi. Qutayb yangi saylangan xalifa Sulaymonga bo'ysunishdan bosh tortganligi uchun xos askarlari tomonidan 715-yili hozirgi Jalolquduq tuman hududida o'ldiriladi.

Tarixchi Narshaxiyning yozishicha, Qutaybaning qabri Koh qishlog'ida. Bu qishloq yonidagi qabriston «Raboti sarhang» (hozirgi «Mozorbuva») deb ataladi. Tuman ma'muriy markazi Oxunboboyev shahri (1976-yildan). Shahar 1976-yilgacha So'fiqishloq deb atalgan.

Marhamat Andijon viloyatidagi shahar va tuman nomi. Marhamat shahri 1974-yilgacha Russkoe selo deb atalgan. Mahalliy ma'lumotlarga ko'ra 1898-yildagi Andijon qo'zg'olonida ishtirok etgani uchun buzib tashlangan bir necha qishloq o'rniga 1899-yilda boshqa joydan bir oz yer ajraatildi, u joyda Marhamat («in'om») qishlog'i bunyod etildi. Qishloq nomi keyinchalik tumanga ham nom bo'lgan. Tarixda Andijon qo'zg'oloni nomini olgan Dukchi eshon qo'zg'oloni hozirgi Marhamat o'rnidagi Mingtepa qishlog'i va uning atrofida bo'lgan. Qo'zg'olon shafqatsiz bostirilgach, rus mustamlakachilari mahalliy aholidan ayovsiz o'ch olgan. Mingtepa qishlog'i yer bilan yakson qililib, uning o'rnida rus selosi qurilgan.

Mingtepa qishlog'i o'rnida qadimiy Davan podsholigining Ershi shahrining xarobalari qisman saqlangan. Xitoyliklar miloddan Avvalgi 101 yilda 60 ming kishilik qo'shin bilan Farg'ona vodiysiga bostirib kirib, Ershi shahrini qamal qilib ishg'ol eta olmaganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, shahar strategik jihatdan qulay joyda joylashgan.

O'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan ming qabilasi borligini ham unutmash kerak. Dastlab etnonimlar qandaydir etnik guruh nomlari sifatida shakllangan, keyinchalik esa joy nomlari toponimlariga aylangan. T.Nafasovning yozishicha, uning (minglar) XV asrning oxiri XVI asrning boshida Dashti Qipchoqdan ko'chib kelishgan.

Ba'zan minglarni tumon yoki tumonming ham deyishgan. Ming nomining «ko'p», «ko'pchilik» degan ma'nosi ham borligi qayd qilingan. X.Doniyorovning yozishicha, «Minglar o'zbekning eng katta va e'tiborli qabilalaridan biri bo'lgan. Ular boshqalarga nisbatan oldinroq o'troq yashashga o'tganligi sababli minglarning asosiy qismi sipolashgan (shaharlashgan) va boshqa qabilalarga nisbatan oldinroq o'zlarining urug'-aymoqlarini unutgan».

Ming qabilasi tarkibidagi urug'lar soni bo'yicha yagona fik yo'q. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmida Zarafshon okrugida bu qabilani o'rgangan A.D.Grebenkin ma'umotlariga qaraganda «minglar uchta asosiy urug' va ular tarkibidagi bir qanch tarmoqlardan iborat bo'lgan: a) to'g'alilar (ahmad, chag'ir, tunnamoz, oqshiq va boshqalar); b) bog'onlar (chibli, qora, mirza va boshqalar); v) uvoqtamg'alilar (kiyikxo'ja, chavutjayli, algal o'ramas, to'qnamos, yarat va boshqalar)». XIX asrning oxiriga kelib minglarning ko'pchiligi o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ming ayollari gilam to'qish, kigiz bosishni yaxshi bilishgan.

Tuman hududining shimol va shimoliy-sharqiy qismi tekislik qolgan qismi tog' etaklari va yon bag'irlaridan iborat. Oloy tizmasining etaklaridagi tog'lar, Ulug'tog' (balandligi 1500 metr Tuyamo'yin adirlari (920 m) birgalikda Oyim - Marhamat Xo'jaobod botig'ini tashkil etadi. Tuman hududidan Shahrixonsoy, Janubiy Farg'ona va Karkidon kanallari oqib o'tadi. Tuma ma'muriy markazi Marhamat shahri (1989-yildan).

Oltinko'l Andijon viloyati tarkibidagi tuman va shaharcha nomi. Oltinko'l tumani relyefi pasttekislik, qir va adirlardan iborat Mutaxasislarning hisob-kitoblariga ko'ra, barcha geografik obyektlar orasida suv bilan bog'liq bo'lganlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Nomsiz suv obyektlari kam, aksincha bitta ko'l yoki daryo bir necha nomga ega bo'lishi ham mumkin.

Nom tarkibidagi oltin insonga ma'lum bo'lgan dastlabki qimmatbaho nodir metallardan biri. Uni kitobiy adabiy nutqda zar, o'zlashuv nutqida tilla deyishadi. Arxeologik topilmalardan oltin buyumning miloddan 5-4 mingyil ilgari yasalgani isbotlangan. Oltinko'l nomini - ko'l suvi tarkibida oltin bor yoki tilla topilgan. Ko'l deb izohlash xalqona etimologiyaga misol bo'ladi.

Qadimiy turkiy tilda olt so'zi bo'lgan va u ort, orqa ma'nosida ham qo'llanilgan. Qadimgi turkiy olt so'zi mavhumlashib, muomuladan chiqqan va uning o'rniga tilning hozirgi holatida olt, orqa

so'zlari qo'llanilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Oltinko'l nomini orqa tomonidagi ko'l, ort ko'l deb tushunish lozim bo'ladi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ko'l mazkur hududda yagona bo'lmagan, atrofdagi ko'llar o'zaro qiyoslangan. Nomning yaratilgan davridagi shakli, uning joylashgan o'rni bilan bog'liq. Nom qo'llanish jarayonida qisman o'zgarishlarga duchor bo'lgan, natijada talaffuz va yozilishi qulay shaklga kelgan.

Gidronimlar juda kam o'zgaradi, demak eng qadimiy nomlardir. M. Murzayevning yozishicha: «gidronimlar vaqt eroziyasiga duchor bo'ladi. Shu sababdan, ularning qadimiy shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin». Suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etganligi bois, dunyo aholisining ko'p qismi suv obyektlari bo'yida sohilida yoki unga yaqin masofada yashaydi. Tuman ma'muriy markazi - Oltinko'l shaharchasi (2009-yildan).

Paxtaobod Andijon viloyati tarkibidagi tuman va shahar nomi. Tuman hududi viloyatning shimoliy qismida, Norin va Qoradaryo vohasidagi paxta yetishtirish uchun qulay bo'lgan yassi tekisliklarda joylashgan. Tumanda paxtachilik yetakchi tarmoq hisoblanadi va bu holat uning nomlanishiga ham asos bo'lib xizmat qilgan. Nom tumanga ma'muriy - rasmiy tarzda qo'yilgan.

O'simliklar insoniyatning asosiy ozuqa manbayi bo'lishi bilan birga, ular ba'zan, tabiiy mo'ljal sifatida dunyoning turli mintaqalari toponimiyasida o'z aksini topgan. Shu sababdan o'simliklar bilan bog'liq joy nomlarini mamlakatimiz toponimiyasi tarkibida ko'p uchraydi. Fitotoponimlar yordamida o'simliklar formatsiyalarining tarqalish arellari, ma'lum hududdagi o'simliklar dunyosining muhim xususiyatlari, ularning turlari haqida ma'lumot to'plash mumkin.

Paxtakor, Paxtachi, Paxtaobod kabi tumanlar nomlari bevosita paxtachilik kasbida erishgan yutuqlarning natijasi tilida tarix sahifalaridan joy olgan nomlar sirasiga kiradi. Bu tumanlar respublikamizning chinakam paxta o'lkasi ekanligidan darak beradi. Nom tarkibidagi obod so'zi juda qadimdan joy nomlari yasashga ixtisoslashgan qo'shimcha sanaladi. Obod so'zi doimo nomlarning so'nggi komponenti bo'lib, belgi vazifasini bajargan. Mahalliy xalqlarning o'troq hayotga o'tishi, yerlarning o'zlashtirilishi, dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi, yirik va turg'un aholi punktlarining paydo bo'lishi obod so'zining yangi ma'no baxsh etishiga sabab bolgan. Hozirda nomlar tarkibida farovon joy, obodonlashtirilgan manzil, qishloq, shahar ma'nolarda qo'llaniladi. Tuman ma'muriy markazi - Paxtaobod shahri (1975-yildan).

Qo'rg'ontepa Andijon viloyati tarkibidagi shahar va tuman nomi. Tuman hududi viloyatning shimoli-sharqida, Farg'ona va Oloy tizmalarining etak qismida joylashgan. Yer yuzasi tog' oldi qiya tekisligidan va Toshoxur, Suzoq adirlaridan iborat.

Respublika miqyosida Qo'rg'ontepa nomi bilan bir qancha katta-kichik geografik obyektlar nomlangan. Qo'rg'ontepa so'zi ikki tarkibiy qismdan iborat, qo'rg'on va tepa. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasidagi ma'lumotlarga ko'ra, o'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o'rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar qafa - qo'rg'on deyilgan. Qo'rg'onlar ko'pincha tabiiy tepaliklarda, ba'zan baland supa ishlanib ustida bunyod etilgan.

Tepa - geografik jihatdan usti gumbaz shaklidagi, yonbag'irlari qiya bo'lgan do'ng, baland joy. Turkiy tillarda tepa, depe, do'bo, to'be, do'ba, to'bu, tojik tilida teppa, o'zbek shevalarida teva, to'ba shakllarida talaffuz qilinadi. E. Murzayevning yozishicha, bu termin turlicha fonetik shakllarida Kavkaz, Volgabo'yi, Ural, Sibir, Yaqin Sharq, Bolqon yarim orolida ko'plab toponimlar hosil qilgan.

Ba'zan eng qadimiy aholi punktlari atrofida qo'rg'on xarobalari va tepa qoldiqlari uchraydi. Qo'rg'ontepa - qadimiy qo'rg'on vayronaga aylangandan so'ng o'rnida paydo bo'lgan baland joy, qal'a xarobasi. Ana shunday qadimiy qishloq xarobalari o'rnida yoki yonida qurilganligi sababli Qo'rg'ontepa deb atalgan. Tuman ma'muriy markazi - Qo'rg'ontepa shahri (1976-yildan).

Ulug'nor Andijon viloyati tarkibidagi tuman nomi. Tuman hududi asosan tekisliklardan iborat. Tumanga nom bo'lib o'tgan Ulug'nor so'zi dastlab yirik sug'orish inshootining nomi bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Xudoyorxon farmoni bilan 1868-1871-yillarda qazilgan mazkur kanalga Ulug'nahr nomi berilgan. Nahr so'zi arab tilida - «ariq», «kanal» ma'nosini anglatadi.

Yangi qurilgan suv obyekti atrofdagi kanallar bilan qiyoslangan, uning nisbatan kattaligi va suv hajmining ko'pligi, ulug' so'zini qo'llashga asos bo'lib xizmat qilgan. Ulug'nor kanali Katta Farg'ona kanalining Kuyganyor suv olish to'g'onidan ham pastroqdan suv oladi. Mazkur kanal yordamida 40 ming ga atrofida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'oriladi.

Tuman ma'muriy markazi - Oqoltin shaharchasi (1987-yildan). 1987-yilda Shahriobod va Oqoltin qishloqlarining birlashtirilishidan vujudga kelgan. Majoziy ma'noda oqoltin - paxta. Adabiy

tilda paxtakorlar mehnatini sharaflab, ularning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirgan paxtani oqoltin deyishadi. Majoziy nomlar toponimiyada ko'p uchraydi va bu semantik so'z yasash usullaridan biridir.

Xo'jaobod Andijon viloyati tarkibidagi tuman va shahar nomi. Tuman hududi Farg'ona vodiysining janubiy-sharqiy qismida joylashgan. Tumanning shimoliy-g'arbiy qismi adirlardan iborat. Inson faoliyatining mahsuli bo'lgan har qanday joy nomi o'tmish voqeligi hisoblanishi bilan birga, u aniq manzilni belgilaydi va muayyan mafkuraviy maqsadlarga ham xizmat qiladi. Aniqroq qilib aytganda, har bir davr, tuzum o'z g'oya va mafkurasiga tayangan holda joy nomlari majmuasini yaratadi. Masalan, diniy g'oyalarning targ'ibotchilari davr mafkurasiga va ma'naviyatiga tayangan holda toponimikani ham o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga va ular yordamida e'tiqod qiluvchilarning psixologiyasi, dunyoqarashi va diniy hissiyotlariga ta'sir o'tkazishga harakat qilishgan.

Tuman va shahar nomi bo'lgan Xo'jaobod ham shunday nomlar sirasiga kiradi desak to'g'ri bo'ladi. Nom ikki tarkibiy qismdan iborat: xo'ja va obod. Xo'ja (fors-tojik tilida, xoja - «xo'jayin, sohib») - islom mamlakatlarida turli davrlarda turlicha ma'noda ishlatib kelingan faxriy unvon va murojaat turi.

Ijtimoiy tabaqa sifatida sayyidlardan keyingi o'rinda turgan. Xo'jalarning kelib chiqishi haqida har xil fikrlar bor. Ba'zi ma'lumotlarda xo'jalar choryorlardan tarqalgan deyilsa, boshqasida arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning avlodlari hisoblanadi. Movarounnahrda xo'jalar muayyan imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Nom tarkibidagi obod so'zi juda qadimdan joy nomlari yasashga ixtisoslashgan qo'shimcha sanaladi. Obod so'zi doimo nomlarning so'nggi komponenti bo'lib, belgi vazifasini bajarib kelgan. Mahalliy xalqning o'troq hayotga o'tishi, yerlarning o'zlashtirilishi, dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi, yirik va turg'un aholi punktlarining paydo bo'lishi obod so'zining yangi ma'no kasb etishiga sabab bo'lgan. Hozirda nomlar tarkibida farovon joy, obodonlashtirilgan manzil, qishloq, shahar ma'nolarida qo'llaniladi.

O'zlashtirilgan, obodonlashtirilgan ma'nosidagi so'z - affiks. Sobiq sho'rolar davrida bu grammatik qo'shimcha mafkuraviy niqob sifatida foydalanildi. Respublika miqyosida obod unsuri 400 dan ortiq joy nomlari tarkibida uchraydi. So'nggi vaqtlarda obod qo'shimchasining o'zi ham geografik obyektlarga nom sifatida qo'llanilmoqda. Obod unsurining negizini tojik tilidagi ob - «suv» so'zi tashkil qiladi. Tuman ma'muriy markazi - Xo'jaobod shahri (1975-yildan).

Shahrixon Andijon viloyati tarkibidagi shahar va tuman nomi. Tuman hududi Shahrixonsoyning keng yoyilmasida, Quva - Andijon adirlari bilan Qoradaryo o'rtasidagi tekislikda joylashgan. Shahrixon tumani hududidan Katta Farg'ona kanali oqib o'tadi. Shahrixon nomi dastlab shaharga berilgan, keyinchalik shu hududda tashkil etilgan tumanga ham nom bo'lib o'tgan.

Shahrixon nomining paydo bo'lishini Qo'qon xoni Amir Umarxon nomi bilan bog'lashadi. Amir Umarxon (1787-Qo'qon -1822) o'zbeklarning ming urug'idan bo'lgan Norbo'tabiyning o'g'li. Tarixiy manbalarga ko'ra, Shahrixon (fors-tojik tilida, - «xon shahri»), 1809-182 I-yillarda Amir Umarxon (xonlik davri 1810 - 1822) farmoni bilan qurilgan. 1982-yili O'zbekiston FA Samarqand arxeologiya ilmiy tekshirish institutining olimlari tomonidan mahalliy olimlar bilan hamkorlikda tumandagi Kamoltepa tepaligida arxeologik qazishma ishlari olib borildi. Natijada bu tepalik I-IV asrlarda kulolchilik shaharchasi bo'lgani aniqlandi. Shahrixon shahrida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan Ponsod masjidi (1825) me'moriy yodgorligi saqlangan. Tuman ma'muriy markazi -- Shahrixon shahri (1975-yildan).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola Toponimikafaniga oid yozilgan ma'lumotlarni to'ldiradi. Andijon viloyati barcha tumanlaridagi joynomlari, kelib chiqishi, ma'nolari, geografik joylashgan o'rni haqidagi bilimlarni beradi. Masalan Marhamat shahrini Mingtepa nomi bilan atalishini shu joy aholisi juda - juda xohlaydi. Sababi, Marhamat terminichor Rossiyasi zug'umi ostida berilgan nom hisoblanadi. achinarlidir. Bunday misollarniko'plab keltirishimiz mumkin. Lekin shunday qadimiy nomlar borki, bunomlarni toponimik ma'nosini, albatta, o'quvchilarga ko'p bortakidlab, ko'rsatib o'tmoq zarur. Masalan, Qilichmazor arab halifaligisarkardasi Qutayba Ibn Muslim O'rta Osiyoga islom dinini tarqalishidayetakchilik qilgan inson. Ularning qabrlari obod qilinib, ziyoratgohga aylantirilgan. E'tibor berilmay kelingan juda ko'plab bunday joylar Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, muqaddas qadamjolarga, odamlarziyarat qiladigan maskanga aylantirildi. Bularning barcha-barchasini Toponimika fani orqali bilib olishimiz mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining izohli lug'ati. T.,) "O'qituvchi", 1977.(Explanatory dictionary of place names)
2. Hasanov H. Geografik terminlar lug'ati. T., "Fan", 1964.(Dictionary of geographic terms)
3. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T., "Fan", 1965.(From the history of Central Asian place names)
4. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. T., "Fan" 1967.(A dictionary of Turkish)
5. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T.,"O'qituvchi". 1988.(Explanatory dictionary of toponyms of Uzbekistan)
6. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. T., " O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2005(Toponyms of regions of Uzbekistan)
7. Qorayev S. Toponimika. T., " O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati ", 2006(Toponymy)
8. S.Jalilov Yuzta qishlog'u o'nta guzar ta'rifi "Andijon nashriyot matbaa" 2011.(Description of one hundred villages and ten guzars)
9. Yu.Ahmadaliyev Toponimika va geografik terminshunoslik "Farg'ona 2018" (Toponymy and geographic terminology)
10. G'ulomov P. Geografiyadan qisqacha ruscha - o'zbekcha atamalar va tushunchalar lug'ati. T., "Universitet", 1993. (Geography in brief in Russian – Uzbek glossary of terms and concepts).